

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– sentabr holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **348 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,1 f.p. oshgan.**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3,3 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-sentabr oyida viloyatda **4,2 mingga** yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan **471 taga** ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **41,3 %** ga kamaygan hamda ularning soni **905 tani** tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **3,9 mingta (13,0 %)** ga o'sgan hamda ularning umumiy soni **30,4 mingtani** tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Qibray (11,1 %), Zangiota (9,6 %) va Toshkent (7,0 %) tumanlarida kuzatilmogda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>34311</b>	<b>100.0</b>	<b>30411</b>	<b>100.0</b>
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	839	2.4	704	2.3
Ohangaron	798	2.3	710	2.3
Bekobod	939	2.7	814	2.7
Bo'stonliq	1691	4.9	1361	4.5
Bo'ka	1124	3.3	882	2.9
Quyichirchiq	906	2.6	823	2.7
Zangiota	3432	10.0	2930	9.6
Yuqorichirchiq	1940	5.7	1853	6.1
Qibray	3553	10.4	3381	11.1
Parkent	1624	4.7	1541	5.1
Piskent	897	2.6	824	2.7
O'rtachirchiq	1641	4.8	1513	5.0
Chinoz	1120	3.3	1068	3.5
Yangiyo'l	1703	5.0	1462	4.8
Toshkent	2453	7.1	2135	7.0
shaharlar:				
Nurafshon	846	2.5	784	2.6
Olmaliq	1456	4.2	1373	4.5
Angren	2334	6.8	1763	5.8
Bekobod	994	2.9	941	3.1
Ohangaron	836	2.4	741	2.4
Chirchiq	1939	5.7	1833	6.0
Yangiyo'l	1246	3.6	975	3.2


**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 88,6 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 11,4 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,2 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 19,1 % sanoatda, 11,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,4 % qurilishda, 3,4 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,3 % axborot va aloqa va 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**



2018 yil yanvar-sentabr holatiga 4200 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 28,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Zangiota (390 ta), Qibray (369 ta), Toshkent tumanlariga (270 ta) to'g'ri keladi. Eng kam Piskent (102 ta), Bekobod tumanlarida (110 ta), Ohangaron (92 ta) va Bekobod shaharlarida (120 ta) tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoatda (958 ta), savdoda (811 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (675 ta) va qurilish (470 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (68 ta), axborot va aloqada (79 ta) hamda tashish va saqlashda (146 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**

	2017 yil yanvar-sentabr holatiga.	2018 yil yanvar-sentabr holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>3531</b>	<b>4200</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	677	675
Sanoat	831	958
Qurilish	243	470
Savdo	581	811
Tashish va saqlash	120	146
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	302	342
Axborot va aloqa	47	79
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	61	68
Boshqa turlari	411	651

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktabr holatiga 25,1 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5,7 mingta, oilaviy korxonalar – 1,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 17,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,05 mingtani va boshqalar 0,6 mingtani tashkil etadi.



**O'ZBEKENERGO AK**  
TOSHKENT HUDUDIIY ELEKTR TARMOQLARI AJ




**«УЗНЕФТЕГАЗМАШ»**  
АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 782 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 199 taga yoki 34,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 458 tasi norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, 324 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Zangiota tumani 98 ta (12,5 %), Qibray tumani 86 ta (11,0 %) va Yuqorichirchiq tumani 74 ta (9,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bekobod 4 ta (0,5 %) Bo'ka va Piskent 6 tadan (0,8 %), Oqqo'rg'on tumanlari 10 ta (1,3 %), hamda Bekobod shahri 6 ta (0,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 491 ta (62,8%), savdoda 109 ta (13,9%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 68 ta (8,7 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 55 ta (7,0%) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 1 ta (0,1%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 8 ta (1,0%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 13 ta (1,7 %), tashish va saqlashda 17 ta (2,2%) hamda qurilishda 20 ta (2,6%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-sentabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 179 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 49 ta, Rossiya Federatsiyasi - 29 ta, Qozog'iston Respublikasi - 27 ta, Turkiya Respublikasi - 23 ta va Janubiy Koreya Respublikasi - 14 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Turkmaniston, Pokiston Islom Respublikasi, Singapur Respublikasi, Vetnam Sotsialistik Respublikasi, Avstriya Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Gretsiya Respublikasi, Isroil davlati va boshqa rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-sentabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 109 ta, savdoda 28 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 17 ta, qurilishda va boshqa turlarda 8 tadan, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta, tashish va saqlash 3 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 24,8 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktabr holatiga qaraganda 16,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2,9 mingtasi (11,6 %) Qibray, 2,5 mingtasi (10,0 %) Zangiota, 1,9 mingtasi (7,5 %) Toshkent hamda 1,6 mingtasi (6,4 foizi) Yuqorichirchiq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 24,8 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6,6 mingtasi (26,7 %) - savdoda, 5,7 mingtasi (22,9 %) - sanoatda, 3,4 mingtasi (13,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2,3 mingtasi (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,2 mingtasi (8,9 %) - qurilishda, 1,0 mingtasi (4,1 %) - tashish va saqlashda, 0,4 mingtasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda axborot va aloqa sohasida va 2,8 mingtasi (11,3 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentabr holatiga 4,3 mingtaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (372 ta), Qibray (344 ta) Toshkent tumanlarida (242 ta) va Angren shahrida (240 ta) tashkil etilgan. Eng kam Piskent (91 ta), Bekobod (106 ta), Ohangaron (115 ta), Bo'ka (116 ta), va Oqqo'rg'on tumanlarida (122 ta) hamda Ohangaron (82 ta), Bekobod (108 ta) va Nurafshon shaharlarida (119 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (956 ta), savdoda (810 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (672 ta) va qurilishda (469 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (64 ta), axborot va aloqada (78 ta) hamda tashish va saqlashda (144 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 oktabr holatiga 1728 tani tashkil etib, ulardan 1541 tasi yoki 89,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **11,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 39,4 % yoki 607 tasi sanoat, 19,2 % yoki 296 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,7 % yoki 272 tasi savdo, 15,4 % yoki 237 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,0 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 13 tasi qurilish, 0,6 % yoki 10 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,3 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 5,6 % yoki 87 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

X.Igamberdiyev  
(0371) 230-86-84,83